

POMIR TOG`LARIGA TABIIY GEOGRAFIK TAVSIF

Usmonova R – Qarshi davlat universiteti dotsenti.

Xayitboyeva G – Qarshi davlat universiteti talabasi.

Annotatsiya: Maqolada O`rta Osiyo mintaqasida Pomir tog`larini o`rganilishi, landshaftlarining shakllantiruvchi omillari va ularning tabiiy xususiyatlarining tavsifi berilgan. Shuningdek, geografik nomlarning kelib chiqishiga e`tibor qaratilgan. Geografik joylashuvi, geologiyasi, relyefi, tabiat resurslarining xususiyatlari, ulardan foydalanish natijasida yuzaga keladigan ba`zi muammolari tasvirlangan.

Kalit so`zlar: Pomir, Tetis, paleozoy, mezozoy, relyef, iqlim, morena, muzlik, balandlik mintaqasi, cho`qqi.

ПРИРОДНО-ГЕОГРАФИЧЕСКОЕ ОПИСАНИЕ ГОР ПАМИР

Усмонова Р. – доцент Каршинского государственного университета.

Хайтбоева Г. – студентка Каршинского государственного университета.

Аннотация: Описаны географическое положение, геология, рельеф, особенности природных ресурсов, а также некоторые проблемы, возникающие в результате их использования. Вводится происхождение географических названий. Описаны географическое положение, геология, рельеф, особенности природных ресурсов, а также некоторые проблемы, возникающие в результате их использования.

Ключевые слова: Памир, Тетис, палеозой, мезозой, рельеф, климат, морена, ледник, высотная зона, вершина.

NATURAL GEOGRAPHICAL DESCRIPTION OF THE PAMIR MOUNTAINS

Usmonova R – Associate Professor, Karshi State University.

Khayitboyeva G – Student, Karshi State University. Uzbekistan

Abstract: The geographical location, geology, relief, features of natural resources, as well as some problems arising from their use are described. The origin of geographical names is being investigated. The geographical location, geology, relief, features of natural resources, as well as some problems arising from their use are described.

Keywords: Pamir, Tethys, Paleozoic, Mesozoic, relief, climate, moraine, glacier, altitude zone, peak.

Ma`muriy jihatdan Pomir tog`lari - Tojikistonning Tog`li-Badaxshon muxtor viloyati, Xitoyning Sinszyan-Uyg`ur muxtor viloyati, Afg`oniston, Pokiston va Shimoliy Hindistonning tutash hududlarida joylashgan tog` tizimidir.

Tabiiy geografik jihatdan Pomir – O`rta Osiyoning janubida va Himolay tog` tizmasining shimolida joylashgan tog` tizimi. Pomir baland tog` tizmalari, ya`ni Tyan-Shan, Qoraqurum, Kunlun va Hindukush tizmalari bilan tutashgan holda kartada to`rtburchak shaklda yastanib yotadi. Pomirning shimoliy chegarasi Orqa Oloy tizmasining shimoliy etagidan, janubiy qismidagisi Panj va Vahondaryo, Vahon tizmasi hamda Toshqo`rg`on daryosining boshlanish qismidan o`tadi. Sharqda Pomirga Sariqo`l tizmasi (6351 m) va Qashqar tog`lari kiradi. G`arbda esa Pomirning chegarasi Panj daryosi, shimoli- g`arbida Pomirga Pyotr I va Darvoz tizmalari kiradi. Pomir kenglik bo`ylab 300 km ga yaqin, meridian bo`ylab esa 250 km ga cho`zilgan.


Pomir nomining kelib chiqishi haqida juda ko`p mulohazalar bo`lib, bugungi kungacha har-xil talqinlar mavjud. Xitoylik Chjan Syan miloddan avvalgi 140-135-yillarda Pomir bo`ylab sayohat qilgan, u bu yerda yovvoyi tog` piyozi (anzur)ni ko`pligidan hayratlanib, Pomirni "piyoz tog`lari" deb atagan holda, uni Tyan-Shanning davomi hisoblagan. Pomir tog`larida baland va qorli cho`qqilarning ko`pligi kishilarni o`ziga maftun etib turishi hamda ulug`vorligi uchun uni ko`pincha "dunyo tomi" deb ham atashadi. Xitoylik sayyoh va tarjimon tang sulolasi (VII asr) davrida diplomatik maqsadlar bilan Amudaryo daryosining havzasidagi mamlakatlarga tashrif buyurgan va uning ma`lumotlarida "Pomir" so`zi birinchi marta adabiyotlarda keltirilgan. Syuan Szyan "Ikki qorli tog` tizmasi oralig`ida Po-mi-lo mamlakati joylashgan, boshqa ma`lumotlarga ko`ra - Pa-mi-yay, bu yerda sovuq va shamollar hukm suradi, qishda ham, yozda ham qor yog`adi, tuproq sho`r va toshlar bilan qoplangan" deb, mahalliy aholining so`zlaridan iqtibos keltirgan. U xitoy tilida bo`g`inlarga ajratib yozib qoldirgan Po-mi-lo (yoki Pa-mi-yay) nomini. Bundan ko`rinadiki haqiqatdan ham bu yerda Pomirning tabiati bayon etilgan.

IX-X asrlardagi asarlarda "Pomir" nomi "Famir" ba`zan "Bamir" shaklida uchraydi. Arablar "Pomir" nomni hindlardan o`zlashtirgan holda talqin qilishgan degan fikrlar mavjud. Italiyalik savdogar va sayyoh Marko Polo esa o`z bitiklarida

bu nomni “Pamer” yoki “Pamier” deb yozgan. Hind va Amudaryo daryolarining yuqori oqimidagi koʻplab geografik nomlar bir-biriga oʻxshash. Jumladan, Kashmir, Tirichmir, Pomir va boshqalar. Baʼzan bu nomlar sanskrit tilidagi “koʻl” maʼnosini anglatuvchi “mir” soʻzidan kelib chiqqan, degan fikrlar ham bor. Maʼlumki, Pomirda haqiqatan ham koʻllar koʻpligidan balki aynan shunday nomlangan boʻlishi mumkin. Mirza Haydarning XVI asrda yozilgan forscha asarida ham “Pomir” yoki “Bamir” nomlari tilga olingan. Fors tilshunoslari Pomir soʻzi forschada Bamiar soʻzidan kelib chiqqan boʻlib, “yer tomi” degan maʼnoni bildirishini taxmin qilishgan. “Mixr” yoki “Mitr” - qadimgi eroniylarning quyosh xudosi sifatida, Pay-mixr soʻzi “quyosh oyogʻi yoki quyosh xudosi” degan maʼnoni anglatishi ifodalanadi.

XX asrning oʻrtalarida oʻzbek geografi X.Xasanov Pomir soʻzi “quyosh oyogʻi yoki quyosh xudosi” degan maʼnoni anglatishi kerakligini bayon etgan. Pomir haqiqatdan ham qadimgi eron xalqlari yashagan yerlarga nisbatan sharqdagi togʻli mamlakat, undan quyosh chiqadi, deb geografik jihatdan ifodalaydi.

Pomir togʻlarini eng baland choʻqqilari dengiz sathidan 7 ming metrdan oshiq boʻlib, sharqida Qashqar togʻlarining eng baland choʻqqilari – Qoʻngʻir (7579 m), Muztogʻota (7555 m), Oqsoyboshi (6148 m) Xitoy hududida joylashgan. Ismoil Somoniy (7495 m) va Ibn Sino (7134 m) choʻqqilari Oʻrta Osiyo oʻlkasidadir. Pomir togʻ tizimi hududi relyefining xususiyatlari jihatidan ikkita tabiiy geografik rayonga ajratiladi: Gʻarbiy Pomir va Sharqiy Pomir.



1-rasm. a) Pomir togʻlari zahjiri (Tojikiston), b) Romir togʻi kartasi, c) Muztogʻota togʻi(Xitoy), d) Ismoil Samoniy va Korjenevskiy choʻqqilari

Sharqiy Pomir yer yuzasining tuzilishi Gʻarbiy Pomirnikidan farq qilgan holda, uning bu qismida togʻ tizmalari yassi tekislik koʻrinishdagi keng vodiylar va

balandligi 3500- 4500 m li botiqlar (Rangko'l, Sho'rko'l, Qorako'l va boshqalar) orqali bir-biridan ajralib turadi.

Ma'lumki, O'rta Osiyodagi ko'plab tog' tizimlari o'rnida paleozoy erasining boshidan to neogenga qadar iliq Tetis dengizi havzasi qoplab yotgan. Paleozoy erasida Tetis dengizi qisqara borib, mezozoyda janubga tomon chekingan va kaynozoyga kelib, bu yerlar suv ostidan butunlay chiqqan. Pomir tog' tizimi kaynozoyda alp burmalanishi davrida, asosan qadimgi Tetis dengizi o'rnida paydo bo'lgan. Quyi paleozoy yotqiziqlari Badaxshonning shimoliy rayonlarida va yuqori paleozoy yotqiziqlari esa Sharqiy Pomirning katta qismida keng tarqalgandir.

O'rta Osiyoning tog'li hududlarida alp tipidagi relyef shakllari keng tarqalgan bo'lib, bular eng yangi tektonik harakatlarning intensivligi, muzliklar ta'siri va sovuqdan nurash bilan bog'liqdir. Sharqiy Pomir tog'ligining relyefida keng yassi vodiylar ko'p bo'lib, tog' tizmalari vodiylaridan 1000-1500 m gacha balandga ko'tarilib turadi. Vodiylar relyefining yassiligi qadimgi muzliklar denudatsiyasi bilan bog'liqdir. Bundan tashqari relyefda muzlash jarayonlari natijasida vujudga keladigan bo'rtma do'nnglar ham uchrab turadi.

Pomir hududi subtropik iqlim mintaqasida joylashgan. G'arbiy Pomirning shimoliy va shimoli-g'arbiy qismlarida baland tizmalari joylashganligi, kelayotgan nam havo massalarini to'sib qoladi. Natijada Sharqiy Pomirning iqlimi qurg'oqchil bo'lib, bulutli kunlarining kamligi bilan tavsiflanadi. Pomir tog'li o'lka bo'lganligi uchun bu hududda balandlik iqlim mintaqalari shakllangan. G'arbiy Pomirning baland qismlarida yillik harorat 0°ga yaqin, daryo vodiylarida esa + 15° dir. Dengiz sathidan 2100 m balandlikda yanvarning o'rtacha harorati - 7,4°. iyulning o'rtacha harorati Xorog shahrida +22°, mutlaq maksimum + 40° gacha ko'tariladi. 4200 m balandda Fedchenko mateostansiyasida mutlaq minimum -31,4°, iyulning o'rtacha harorati 3,9°, maksimum harorat 15,5°ni tashkil etadi. Pomirning shimoli-g'arbiy qismida yillik yog'inning miqdori 1500 mm gachadir.

Sharqiy Pomirning iqlimi G'arbiy Pomirnikidan ancha farq qilib, yillik o'rtacha harorati hamma qismida manfiy ko'rsatkichdadir. Yanvarning o'rtacha harorati 3600 m balandlikda $-17,8^{\circ}$, minimum -50° ga yaqin bo'ladi. Dengiz sathidan 4000 m balandlikdagi Qorako'lda yanvar oyining o'rtacha harorati -20° . Bu yerda yoz qisqa va salqin, tungi vaqtlarda harorat 0° dan pastga tushadi. Iyulning o'rtacha harorati esa $+15^{\circ}$ dan oshmaydi. Sharqiy Pomirning ba'zi hududlarida sovuqsiz davr kuzatilmaydi.

Pomir tog' tizimlari hududiga g'arbdan nam havo massalari kelganligi sababli, uning g'arbiy va shimoli-g'arbiy qismlarida yog'ingarchilik ko'p, sharqiy qismida esa yog'ingarchilik kam. Fanlar Akademiyasi va boshqa unga yondosh tizmalarning yillik yog'in miqdori 2230-2500 mm ga yetsa, uning sharqda joylashgan hududlarda yog'in miqdori juda kam 60-100 mm ga yetadi, yog'in miqdori Murg'obda 60-72 mm, Qorako'l botig'ida esa 60 mm dan oshmasligi kuzatiladi.

Pomirning suvlari asosan Amudaryo havzasiga va qisman oqimsiz tog' ko'llariga, Sharqiy Pomirdan boshlanuvchi ba'zi daryolar esa Yorkent va Qashqar daryolari havzalariga boradi.

Pomirda tektonik va morena ko'llar ko'p bo'lib, juda balandda joylashgan. Masalan, Qorako'l - 3910 m, Yashilko'l - 3734 m, Zorko'l 4125 m balandlikda joylashgan. Ko'llar Pomir hududi landshaftining o'ziga xos komponenti sifatida ekotizim hosil qiladi. Pomir hozirgi zamon muzliklari (7100 ta) keng tarqalgan hudud hisoblanadi.

G'arbiy va Sharqiy Pomirda har xil balandlik mintaqalari shakllangan. A. N. Rozanov (1958)ning ta'kidlashicha, Pomir oblasti tuproqlari gumusi kam va sho'rlangan taqirsimon cho'l hosilalari, cho'l-dashtlarining toshloq qo'ng'ir tuproqlari hamda sho'rxoklardan iborat.

G'arbiy Pomirning shimoliy qismidagi baland tog' mintaqasi tog' o'tloqlari va o'tloq-dasht o'simliklari bilan band. Baland tog'lardagi cho'l va cho'l-dasht va nival mintaqadan iborat.

Sharqiy Pomir iqlimining kontinentalligidan, tuproq va o`simlik qoplami ham shunga mos ravishda o`zgaradi. Bu joylar uchun baland tog` cho`li tipik landshaft hisoblanadi. Sharqiy Pomir o`zining tabiati jihatidan Tibet tabiatiga yaqin turadi va Tibet botanik-geografik provinsiyaga kiradi.

Mintaqa tabiiy resurslarga jumladan, gidroenergetika va mineral resurslariga boy. Bu yerda 50 dan ortiq issiq va sovuq mineral shifobaxsh buloqlar mavjud.

Keyingi yillarda dunyo bo`yicha iqlim o`zgarishi natijasida tog` muzliklarining erishi kuzatilmoqda. Ayniqsa, antropogen faoliyatining ortishi Pomir tog`larida bir qancha ekologik muammolarni yuzaga keltirgan. Tog` muzliklarning erishi O`rta Osiyo daryo oqimlariga salbiy ta`sir ko`rsatib, mintaqada ichimlik suvi muammolarini yuza kelishiga sabab bo`lmoqda.

Foydalanilagan adabiyotlar ro`yxati

1. Baratov P. va boshqalar. O`rta Osiyo tabiiy geografiyasi // O`quv qo`llanma. T.: "O`qituvchi" 2002. 639 b.

2. Агаханянц О. Е., Юсуфбеков А. Главные черты природы Памира // Страны и народы востока. Вып. XVI. — 1975. — С. 26-40.

3. Гвоздецкий Н. А. Голубчиков Ю. Н. Горы. — М.: Мысль, 1987. — С. 201-204. — 399 с.

4. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Pomir>

5. Памир На Физической Карте Полушарий. Quotesfasr.weebly.com.

6. КЛИМАТ: ПАМИР. CLIMATE - DATA. ORG. Архивировано из оригинала 9 августа 2016 года.

7. ПАМИР: [арх. 27 апреля 2019] / Петрушина М. Н. // П — Пертурбационная функция. — М.: Большая российская энциклопедия, 2014. — С. 174—177. — (Большая российская энциклопедия: [в 35 т.] / гл. ред. Ю. С. Осипов; 2004—2017, т. 25). — ISBN 978-5-85270-362-0.